

**YOZUV MADANIYATI, FUNKSIYALARI VA TA`SIR ETUVCHI  
OMILLAR**

*Ōralova Hulkar Toxir qizi*

*ŌzMu magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola yozuv madaniyatining mohiyati, unga ta`sir etuvchi omillar tahliliga qaratiladi. Dunyoda kishilik hayotida yozuvlarning kelib chiqishi va uning ahamiyatini o`rganuvchi bir qator muassasalar faoliyat yuritishi, yozuvlarga oid tadqiqotlarning ko`plab o`tkazilishi bu mavzu hozirga qadar o`z dolzarbligini yo`qotmaganligining isbotidir.

**Kalitso`zlar:** yozuv tarixi, funktsiya, faoliyat, tizim, metod.

### **KIRISH**

Yozuv - muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o`rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozuv - kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma`nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo`lgan (tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan<sup>1</sup>, Yozuvning paydo bo`lganiga esa 4-5 ming yillar bo`lgan). Og`zaki til (nutq)ning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo`lishiga olib kelgan<sup>2</sup>. Og`zaki til talaffuz vaqtidagina va ayni paytda muayyan masofadagi (tovush to`lqinlari yetib borishi mumkin bo`lgan) kishi uchungina mavjuddir.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Yozuv ilk sivilizatsiyalarning asosiy belgisi hisoblanadi. Ingliz olimi G.Chayld yoki hozirgi zamon rus tadqiqotchisi V.Gulyayev yozuvni ilk

<sup>1</sup>O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil,

<sup>2</sup>Usmonov .S - Umumiy Tilshunoslik." T., 1972.

shaharlarning va sivilizatsiyalarning asosiy belgilaridan biri deb biladilar. O'zbek arxeologi va tarixchi olimi Temur Shirinov esa urf-odatlariga kuchli bo'ysunuvchi, og'zaki ijod rivojlangan, davlat boshqaruvi esa kam rivojlangan jamoalarda yozuvning bo'lishini ilk shaharlarning ikkinchi darajasi hisoblanadi<sup>3</sup>.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Tarixdan ma'lumki, Mesopatamiyadagi ilk qadimgi shahar-davlat-Shumerda mil. av.IV ming yillikda ilk bor rasm, so'ng mixsimon belgilar ko'rinishida paydo bo'lgan. Mil. av. III ming yillik so'ngida Misr ieroglifikasi paydo bo'lishi bilan yagona Misr shoxligi vujudga kelgan<sup>4</sup>.

Qadimgi Xitoyliklar ham hisob-kitob va yodda saqlash uchun tizimchalardagi tugunlardan foydalanganlar. Qadimgi xalqlarda vaqt hisobi ham ko'pincha tugunlar bilan olib borilgan. Eramizdan oldingi V asrda yahagan qadimgi yunon mashxur tarixchisi Gerodot hikoya qilgan Doro kalendari bunga misol bo'la oladi.

Bilim sohasining ko'pgina fanlarida bo'lganidek, yozuv ilmida matnshunoslikda hamyondosh sohalar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi mustaqil fanlar sifatida tan olingan hamda manbashunoslik tadqiqot ob'ektlarining xarakteriga qarab zarur o'rinlardagina qo'llanilib boriladi. Quyida ularning manbashunoslik va matnshunoslik ilmida ko'p tilga olinadiganlari bilangina tanishib o'tamiz.

**MATNSHUNOSLIK**-filologiyaning adabiy, tarixiy, ilmiy asarlar hamda tairixiy hujjatlar matnini ilmiy-tanqidiy o'rganish va nashr qilish bilan shug'ullanuvchi sohasidir. Adabiy, tarixiy va ilmiy asarlar matnshunosligiga bo'linadi.

**ARXEOLOGIYA**-qadim yozma yodgorliklarning yozilish o'rni, vaqti va h.klarni aniqlash uchun uning tashqi belgilarini, yozuvini o'rganuvchi tarixiy-filologik fan. Bu sohadagi ishlar mintaqa madaniyatimizda alohida nom bilan atalmagani holda juda qadimdan davom etib keladi.

<sup>3</sup>Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. рання городская культура на юге Средной Азии Самаркандю 1993. 33-стр.

<sup>4</sup> Исмоилов А., Мадвалиев А. Пиктография. ЎЗМЭ. Тошкент, 2004, 7-жилд, 69. –Б. ....

**GERMENEVTIKA**-Matnshunoslikning qadim yozma yodgorliklarni, klassiklarning asarlarini ularning dastlabki mazmunini tiklash maqsadida sharhlash, tafsir etish sohasi. (Antik davrda diniy matnlarni sharhlash, tafsir etishdan kelib chiqqan). Jumladan, Forobiy yunon mutafakkirlari Aflotun, Arastu, Evklid, Ptolomey, Porfriy va boshqalarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlaridan “Metafizika”, “Etika”, “Ritorika”, “Sofistika” va boshqalarni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bergan. Bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi “Mo ba’iy tabiat” ga o’xshash maxsus sharhlar yozgan.

Hozirgi ma’nodagi germeneytika shoir yoki yozuvchi asarlarining ilmiy tanqidiy-matnini tuzish, bu asarlarni har xil izoh va sharhlar bilan ta’minlash, sarning adabiyotda tutgan o’rnini aniqlab berishdir.

**FILIGRANOLOGIYA**-qog’ozdagi suv belgilarini o’rganuvchi fan. Ayniqsa, kitob muqovalariga tushirilgan shakllar, bezaklar suv belgilari usulida hosil qilingan. Ularning vujudga kelgan vaqti va joyini bilgan holda, sanasi ko’rsatilmagan qo’lyozma kitoblar haqida hukm chiqarish mumkin bo’ladi.

**EPIGRAFIKA**-tosh, yog’och, spool kabi narsalarda saqlangan yozuvlarni o’rganuvchi tarixiy-filologik fan.

**NUMIZMATIKA**-tarixning tanga, chaqa va taqinchoqlardagi yozuvlarni, pul zarb qilish va pul muomalasini o’rganuvchi sohasi.

**KRIPTOGRAFIYA**-paleografiyaning mahfiy yozuvlarni o’rganuvchi sohasi. Mazkur sohalarning ko’pchiligi Yevropada XVI-XX asr arxeologiya va tarix ilmlari bilan hamqadam rivojlanib keldi. Tobora kengayib, mustahkamlanib, ayrimlari hatto mustaqil fan maqomiga ham erishdi<sup>5</sup>.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Yozuvning yaratilishi, unung takomillashtirilishi, jamiyat taraqqiyoti, eng muhimi adabiy tilning rivojlanishini tezlashtirish. Til dastlabki qarashda barqaror, o’zgarmas fonetik leksik va grammatik sistemami tashkil etadi. Masalan, bizga fikr almashish quroli bo’lib xizmat qilayotgan o’zbek tili,

<sup>5</sup> Д.С. Текстология. Краткий очерк. М.Л., 1964

bobolarimizga ham, ota-onalarimizga ham birday xizmat qilib kelgan. Bobo va nabira o‘zaro gaplashayotganlarida na birinchi va na keyingi "avlod til nuqtai nazaridan hech qanday qiyinchilik sezmaydi. Ular doimo bir-birlarini tushunishadi Lekin shu bilan birga, til qotib qolgan narsa emas. Tilga chuqurroq yondashilsa, bunga ishonch hosil qilinadi. Til har kun, har daqiqa o‘zgaruvchan xodisadir.

Tildagi sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar shunday sekinlik bilan bo‘ladiki, buni bir avlodning yashash davrida ajratib olish va uni qayd qilish odatda amri maxoldir. Uch-to‘rt avloddan keyin esa, tilning leksik, grammatik qatlamlaridagi siljishlar ko‘zga tashlana boshlandi. Bunday siljishlarni biz bir narsa tufayli u xam bo‘lsa yozuv orqali bilib olishimiz mumkin (gap yozuv paydo bo‘lgandan so‘nggi davr haqida boradi)<sup>6</sup>. Agar yozuv bo‘lmasa, til evolyustiyasi to‘grisida bizda hech qanday tasavvur bo‘lmasligi mumkin edi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil,
2. Usmonov .S - Umumiy Tilshunoslik.” T., 1972.
3. AsqarovA.A, ShirinovT.Sh. ранняя городская культура на юге Средной азиию Самаркандю 1993. 33-стр.
4. Исмоилов А., Мадвалиев А. Пиктография. ЎЗМЭ. Тошкент, 2004, 7-жилд, 69. –Б. ....
5. Д.С. Текстология. Краткий очерк.М.Л.,1964
6. М.Ирискулов. Тилшуносликка кириш. –Т., 1992.

<sup>6</sup> М.Ирискулов. Тилшуносликка кириш. –Т., 1992.